

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/04.06.2021.Fil/72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

BUZRUKOVA MAXINA MUXAMADXONOVNA

TURISTIK DISKURSNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA
TARJIMA PRAGMATIKASI
(INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, cho‘g‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtotreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science degree (DSc)

Buzrukova Maxina Muxamadxonovna

Turistik diskursning lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima pragmatikasi (ingliz, rus va o‘zbek tillari materialida)3

Buzrukova Makhina Mukhamadkhonovna

Tourism discourse: linguocultural features and translation pragmatics (on the material of English, Russian, and Uzbek languages)33

Бузрукова Махина Мухамадхоновна

Лингвокультурологические особенности туристического дискурса и прагматика перевода (на материале английского, русского и узбекского языков)63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....68

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/04.06.2021.Fil/72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

BUZRUKOVA MAXINA MUXAMADXONOVNA

TURISTIK DISKURSNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA
TARJIMA PRAGMATIKASI
(INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, cho‘g‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3.DSc/Fil648 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.buxdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Eltazarov Jo'liboy Danaboyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayeva Malohat Muhammadovna
filologiya fanlari doktori, professor

Sadullayeva Nilufar Azimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Toirova Guli Ibragimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil72.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "18" yanvar soat 09⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; Faks: (0 365) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (548 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "24" dekabr kuni tarqatildi
(2024-yil "24" dekabr da 24-41 raqamli reestr bayonnomasi).



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari va xalqaro turizmning tez rivojlanishi hozirgi davrda turistik diskursning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish va ularni tarjima qilish masalasi muhimligini kuchaytirmoqda. Jahon tilshunosligida izchil rivojlanayotgan psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lisoniy madaniyatshunoslik, pragmalolingvistika va korpus tilshunosligi yo‘nalishlari doirasida antropotsentrik tamoyillarni va tahlil usullarini shakllantirgan holda, til tizimini kommunikativ faoliyat omillari bilan bog‘liq holda tadqiq qilishni talab etmoqda. Ayniqsa, pragmalolingvistika sohasidagi izlanishlar til va nutq hodisalarining kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini aniqlash orqali ularni turli madaniy muloqot kontekstlarida samarali qo‘llash imkoniyatini taqdim etmoqda. Global turizm muloqoti turli lisoniy madaniyat vakillarining nutqiy o‘ziga xosliklarini o‘rganishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi turizm terminologiyasining lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish va tarjimada bu tillar o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni hisobga olish orqali samarali kommunikativ ko‘priklar yaratish bugungi kunning muhim talabidir. Ushbu tadqiqot turistik diskursda madaniy kodlar va ramzlar orqali milliy madaniyatni saqlab qolish va ularni global miqyosda to‘g‘ri aks ettirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, bu sayohatchilarga madaniy boyliklarni kengroq tushunishga yordam beradi.

Dunyo tilshunosligida, turistik diskursning lingvomadaniy xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali global turizm jarayonida madaniyatlararo aloqa va milliy qiyofani saqlab qolish, sayyohlarning turli madaniy meroslarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, hamda turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi vositalarni yaratishning dolzarbligi namoyon bo‘lmoqda. Shu tariqa, tadqiqot natijalari o‘zbek turizm industriyasi va xalqaro miqyosdagi madaniy muloqotga o‘ziga xos hissa qo‘shishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy islohotlarning keng ko‘lamda olib borilishi o‘zbek olimlari oldiga ham qator vazifalarni qo‘ymoqda. Shu jumladan, xorijiy tillar nazariy asoslarini tadqiq etish orqali til ta‘limining samaradorligini oshirish masalasi barchaning e‘tiborida turibdi. Mamlakatimizda xorijiy tillar ta‘limiga alohida e‘tibor yuqori darajada qabul qilinayotgan hujjatlarda o‘z aksini topmoqda. Xususan, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117 son Prezident qarorida qayd etilganidek, “Xorijiy tillarni o‘rgatishni ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta‘lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali kadrlarni jalb etish, aholi o‘rtasida xorijiy tillarga qiziqishni oshirish”¹ bo‘yicha qator vazifalar belgilandi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish keng ko‘lamli tillararo cho‘g‘ishtirma tadqiqotlar olib borilishini taqozo etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 19 maydagi PQ – 5117 – son qarori // <https://lex.uz>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020 yil 20 oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 15-yanvardagi PF-52-son “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, shunigdek, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 18-fevraldagi PQ-135-son “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2024 yil 12 yanvardagi PQ-19-son “O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni xorijiy davlatlarda keng targ‘ib qilish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Turistik diskursning tadqiqiga oid muammolar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida o‘rganilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar jahon turizm tashkiloti (World Tourism Organization – WTO), Universite Toulouse de Jean Jaures (France), Xalqaro ekoturizm jamiyati (The International Ecotourism Society – TIES), University of Melbourne (Avstraliya), Universite de Monreal (Canada), The university of Calgary, World Tourism Education and Research Centre (Canada), School of Leisure and Food Management Sheffield Hallam University (Great Britain), International Centre for Tourism and Hospitality Research, Bourmouth University (Buyuk Britaniya), Korea Development Institute (Janubiy Korea), Universite de Jeneve (Suisse), Bocconi University (Italiya), Universiya Di Trento (Italiya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), O‘zbekiston milliy universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat universiteti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro

² Ma’lumotlar universitetlar veb-sahifalaridan olingan: <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.ids-mannheim.de/>, <https://www.laccd.edu/>, <https://www.uchicago.edu/>, <https://www.bsuedu.ru/bsu/>, <https://www.vspu.ru/>, <https://www.utm.ru/>, <https://www.vsu.ru/>, <https://www.uzswlu.uz/>, <https://samdchi.uz/>.

universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universitetlarida (O'zbekiston Respublikasi) amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda turistik diskurs xalqaro miqyosda o'zining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima pragmatikasi orqali o'ta muhim madaniyatlararo kommunikatsiya vositasi sifatida madaniy almashinuvni ta'minlashda va turizm sohasi bo'yicha axborotni samarali uzatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lingvomadaniy tadqiqotlar dunyo bo'ylab turizm xizmatlarini rivojlantirish jarayonida ko'plab madaniy va milliy mazmundagi o'ziga xos elementlarning, jumladan, milliy atamalar va etnografizmlarning tarjima qilinishini o'rganadi. Melbourne Universitetida (Avstraliya) turizm sohasida madaniy boylikni aks ettirishda atamalarining tarjimaga xos pragmatik jihatlari o'rganilmoqda, shuningdek, Bocconi Universitetida (Italiya) sayohatchilarning madaniy ehtiyojlarini qondirish va tarjima orqali madaniy ahamiyatga ega ob'ektlar haqidagi ma'lumotlarni yetkazish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, Jahon Banki (World Bank Group – WBG) va OECD tomonidan “yashil innovatsiyalar” va ekoturizm xizmatlarini taqdim etishda ekologik ahamiyatga ega atamalarining samarali tarjima qilinishi hamda ularning turizm matnlarida madaniy merosni aks ettirishda qanday rol o'ynashi tadqiq qilinmoqda, “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar turistik diskursning madaniy va iqtisodiy ahamiyatini oshirishda milliy xususiyatlarga xos bo'lgan atama va metaforalarning tarjima pragmatikasiga qaratilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Til va turizm faoliyatidan foydalanuvchi o'rtasidagi munosabat har doim ajralmas duet bo'lib kelgan, chunki til anonim va noma'lum manzilni turistlarni jalb qiluvchi turizm obyekti yoki yo'nalishiga aylantiradi, turizm esa ma'lumot berish, jalb qilish va targ'ib qilish maqsadida ijobiy voqelik yaratish uchun tilga xizmat qiladi. Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining boshqa muhim sohalari bilan bir qatorda, juda muhim faoliyat turiga aylangan. Turizmning tadqiqi bir qancha mushkulotlar tug'diradi, zero ushbu soha iqtisodchi, tabiatshunos, ruhshunos, sotsiolog va boshqalar tadqiq ob'ektiga aylanib ulgurgan. Mazkur soha qadimdan turli olimlar, shu jumladan, faylasuf-siyosatchilar e'tiborini jalb etib kelmoqda.

Turizm ijtimoiy-falsafiy jihatdan bir qator o'zbek olimlari ilmiy ishlarida tahlil qilingan³.

Turizm madaniyatlar xilma-xilligi bilan tanishish usullaridan biri sifatida g'arb antropologlari D. Kempbel, B. Lauterbax, K. Levi-Straus, D. Nash, M. Mead, V. Smit, L. Turner va boshqa olimlarning tadqiqot predmeti sifatida o'rganilgan.

Turizm madaniyatlararo muloqot va madaniy amaliyotning ayrim masalalari ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan⁴.

³ Mirzarahimov B.X. O'zbekistonda turizm madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari. filosof. fani bo'yicha falsafa dokt. (PhD)... dis. Avtoreferati. – F., 2021. – 50 b.; Xashimov Sh.J. O'zbekistonda milliy turizm rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari filol. fani bo'yicha falsafa dokt. (PhD)... dis. Avtoreferati. – F., 2022. – 49 b.; Orziqulov B.X. Ziyorat turizmining ijtimoiy-ma'naviy tavsifi. filol. fani bo'yicha falsafa dokt. (PhD)... dis. Avtoreferati. 2022. – 50 b.

⁴ Kurbanova N. Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda ziyoratgohlar turizmi roli. 2019.; Yuldashev X.Y. Mintaqada dam olish-hordiq chiqarish maskanlarini ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlari. Dis.

Turizm tili lingvistik nuqtai nazardan ixtisoslashgan til hisoblanib, u muayyan oʻziga xos xususiyatlarga ega, jumladan, maxsus terminologiyadan foydalanish va maxsus grammatik tuzilmalar, soʻzlar oʻrtasidagi aloqalarning matn darajasida ifodalanishi, nutq aktlari, semantik va semiotik munosabatlarning taqdimoti kabilar shular qatoriga kiradi.

Turizmda diskursiv faoliyatni amalga oshirish masalalari quyidagi olimlar ishlarida muhokama qilingan: M.S.Dan, C.TurLOW, A.Yaworsky, G.Kapelli, R.Foks, S.Loson, L.Baxvalova, L.Tarnaeva, S.Pogodaeva, V.Mityagina, N.Filatova, L.Govorunova, Yu.Slezko, F.Kositskaya va boshqalar⁵.

Turizm iqtisodiy barqarorlikning asosiy yoʻnalishi sifatida iqtisodchilar tomonidan oʻrganilib kelinmoqda⁶.

Urganch, 2018. - 102 b.; Welsch, W. Transkulturalität. Lebensformen nach der Auflösung der Kulturen / W. Welsch // Information Philosophie. – 1992. – No. 2. – S. 5–20.; Dann, G. M. S. The language of tourism – Wallingford, 1996.; Cronin, M. Across the Lines. Travel, Language, Translation – Cork: Cork University Press, 2000. – 172 p.; Рогачева, В. И. Туризм как феномен кросскультурной коммуникации: дис. ... канд. социол. наук. – М., 2003. – 163 с.; Гализдр А. С. Культурная динамика туризма и путешествий в эпоху глобализации // Первый Российский культурологический конгресс. Тезисы докладов. – СПб.: Эйдос, 2006. – С. 34–37.; Мошняга, Е. В. Концептуальное пространство межкультурной коммуникации в туризме в условиях глобализации; РМАТ. – М.: Сов. спорт, 2010. – 219 с.; Лысикова, О. В. Социальные изменения культурных практик отечественного туризма в условиях глобализации: автореф. дис. ... д-ра филол. наук: 22.00.06 – Социология культуры – Саратов, 2012. – 40 с.

⁵ Cappelli, G. Sun, Sea, Sex and the Unspoilt Countryside. How the English language makes tourists out of readers. Pari Publishing: Pari, 2006.; Fox, R. English in tourism: a sociolinguistic perspective*, Tourism and Hospitality Management, Vol.14, No 1, 2008. Pp. 13-22.; Jaworski A., Thurlow C., Ylanne-McEwen, V. and Lawson, S. Language, Tourism and Globalisation: The Sociolinguistics of Fleeting Relationships. London: Routledge, 2007.; Тарнаева, Л. П. Концепция языковой личности в контексте проблем переводоведения // Вестник Ленинградского университета. – 2008. – № 2 (13). – С. 55–68.; Погодаева, С. А. Языковые средства аргументации во французском туристическом дискурсе : дис. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 2008. – 234 с.; Бахвалова Л. Е. Экскурсионная речь как жанрово-стилистический феномен // Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. – 2008. – № 2. – С. 17–21.; Новикова // Homo Loquens: (Вопросы лингвистики и транслятологии): сб. ст. – Вып. 8 / редкол.: В. А. Митягина (отв. ред.) [и др.]. – Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2015. – С. 95-107.; Говорунова Л.Ю. Отзыв туриста как новый речевой жанр туристического Интернет-дискурса // Вестник Челябинского государственного университета. - 2013. - № 1 (292). Филология. Искусствоведение. Вып. 73. - С. 198-203.; Слезко, Ю. В. Формирование стратегий овладения туристическим дискурсом в процессе профессионально ориентированного обучения иностранному языку // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – № 3 (33). – В 2 ч. Ч. 2. – Тамбов : Грамота, 2014. – С. 180–186.; Филатова Н. В. Дискурс сферы туризма в прагматическом и лингвистическом аспектах : дис. ... канд. филол. наук. – М., 2014. – 179 с.; Косицкая, Ф. Л. Жанровая палитра французского туристического дискурса // Вестник ТГПУ. – 2013. – № 3 (131). – С. 192–195.

⁶ Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. -248 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менежмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос. Науч. Изд. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. -386 с.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2006. – 137 b.; Tuxliev I. Turizm asoslari. Samarqand: SamISI. 2015. – 271 b.; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). DSc. Dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019.-246 b.; B.Sh. Safarov Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. //Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2016. –148 b.; Pardayev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt.fan.dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b; Hamidov O.H., Norchayev A.N. Ekoturizm. — Darslik. — T.: TDIU, 2011. -138 b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc. Dissertatsiya avtoreferati-Toshkent. 2021.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –68 b.; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. – 204 b.; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: -док.дисс. автореф., 2011.– 38 с.; М.М.Ирматов, И.А.Ахмедов.Туризм rivojlanishini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. TDIU, 2004. -132 b.

Turizm diskursi keng qamrovli, murakkab, ko'pqirrali va maxsus ko'nikmalarni talab qiladigan muloqot shakli bo'lib, u faqat turistik ma'lumotlarni yetkazish bilan cheklanib qolmay, balki turizmga oid joylarning jozibador qiyofasini yaratishga ham yo'naltirilgan. Globallashuv davrida turizm nutqining lisoniy jihatlari xalqaro muloqotni yaxshilash, sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish strategiyalari tadqiqi dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu muammo o'zbek tilshunoslarining e'tiboridan chetda turganligi ham mazkur tadqiqotga bo'lgan zaruratni izohlaydi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining O'TA-18/1-son "O'zbek tili va adabiyoti ta'limining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, o'zbek va rus tillarida turistik diskursning lingvomadaniy xususiyatlarini va tarjima pragmatikasi tamoyillarini aniqlash, turizm matnlaridagi til birliklari va madaniy elementlarni uch til doirasida taqqoslab o'rganish orqali madaniyatlararo kommunikatsiyaning qiyinchiliklari va imkoniyatlarini belgilash hamda milliy o'ziga xoslikni saqlashga qaratilgan tarjima usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

diskurs va turizm sohasidagi lingvistik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish orqali turistik diskursning lisoniy, semiotik va pragmatik komponentlarini chuqur o'rganib, sayohatchilar va soha mutaxassislari uchun foydali axborotlarni yetkazish;

turistik diskursda faollashadigan pragmatik yondashuvlar va strategiyalarni tadqiq qilish. Diskursning pragmatik komponentlarini tavsiflash orqali turistlarni madaniy muhitga moslashtirish va ularning sayohat davomida madaniy o'ziga xosliklarni tushunishlarini izohlash;

turistik diskurs va tarjima jarayonida kommunikativ-pragmatik va funksional yondashuvlarga tayanib, tarjimonning madaniyatlararo vositachilik vazifasini rivojlantirishga yo'naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqish;

turistik terminologiya tizimi va ushbu terminlarni tarjimasi jarayonida milliy va xalqaro darajada o'ziga xosligini saqlagan holda, lingvistik va madaniy kontekstga mos keladigan tarjima usullarini tavsiya qilish;

lingvistik va madaniy kodlarni birlashtirish orqali turistik xizmatlar sifatini oshirish. Turistik xizmatlar va materiallarni sayyohlarga qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazish uchun lingvistik va madaniy kodlarning uyg'unligini ta'minlashning muhimligini isbotlash;

madaniy assotsiatsiyalar va ko'pmodallik imkoniyatlarini o'rganish asosida turizm diskursida madaniy qiymatlarni ifodalash va milliy o'ziga xoslikni saqlash uchun turli assotsiativ shakllarda til birliklari va semiotik elementlardan foydalanish zaruratini dalillash.

Tadqiqotning obyeksi sifatida ingliz, o'zbek, rus tillaridagi turli manbalardan tanlangan og'zaki va yozma ko'rinishida turistik diskurs namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti xalqaro turizm diskursida lingvomadaniy jihatlarining ifodalanishi, turizmga xos tushunchalar tarjimasi, pragmatikasi, lingvistik va semiotik belgilar orqali turistik xizmatlarning jozibador qiyofasini yaratish, shuningdek, turistik matnlarda kommunikativ strategiyalarni qo'llash usullarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik va semiotik tahlil, diskursiv tahlil, qiyoslash usullari qo'llanilgan. Shu bilan birga, turistik diskursda nutqiy aktlar, pragmatik strategiyalar va subyektiv modallik ko'rsatkichlarini o'rganish uchun pragmasemantik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, madaniy moslashuv va kommunikativ muvaffaqiyatga erishish uchun madaniy transfer strategiyalarini tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida lingvomadaniy izlanishlar ham amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

diskursning tilshunoslik va boshqa fan sohalarida lisoniy-ijtimoiy, lingvomadaniy, pragmatik, kognitiv hodisa sifatida o'rganish zarurligi asoslanib, turistik diskursning so'zlovchining muloqot muhitidagi roli, adresat omili, uzatilayotgan axborot tarkibi, kommunikativ maqsadga yo'naltirilganligi kabi pragmatik-kommunikativ jihatlarini aniqlangan;

chog'ishtirilayotgan tillarda turistik diskursning lisoniy shakllanishida lingvomadaniy axborotning muhimligi til vositalari va kommunikativ strategiyalar tanlovida aks topishini inobatga olgan holda turistik diskursning milliy-madaniy xususiyatlari bilan tanish bo'lish madaniyatlararo muloqot samarasini ta'minlovchi asosiy omil ekanligi dalillangan;

turizm sohasi vakillari va sayohatchilar ishtirokida kechadigan turistik diskurs lisoniy-semiotik, kommunikativ-pragmatik, milliy-madaniy, kognitiv ko'rinishdagi tarkibiy belgilarni qamrab oluvchi murakkab, ko'pqirrali va ko'po'lchamli nutqiy hosila ekanligi funktsional-semantik yondashuv negizida isbotlangan;

turistik diskurs tarjimasi sharoitida adekvatlikka erishishning asosiy shartlaridan bo'lgan tillararo ekvivalentlarni topish tarjimonning lisoniy kompetentsiyasi, lingvokreativlik qobiliyati hamda pragmatik, kognitiv, sotsiomadaniy, ma'rifiy kabi nolisoniy omillar bilan shartlanishi ochib berilgan;

turizm sohasi bo'yicha tahsil olayotgan yoshlar uchun onlayn mashg'ulotlar, ma'ruzalar va taqdimotlar o'tkazish uchun milly va xalqaro turistik terminologiya tizimini o'ziga xos darajada saqlagan holda, lisoniy va madaniy kontekstlarga mos keladigan tarjima usullari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turistik diskurs tuzilishi, tarkibi va tarjimasini tahlil qilish orqali aniqlangan semiotik va lingvistik elementlar turistlar bilan muloqotni yaxshilash va turistik xizmatlarning samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishi mumkinligi taklif qilingan;

tadqiqot natijalari o'zbek madaniyatini chet el turistlariga ko'proq tushunarli qilish uchun xizmat qilishi, o'zbek oshxonasi va madaniy an'analariga oid turistik matnlarni tarjima qilishda o'ziga xos madaniy elementlarni saqlab qolish orqali sayyohlarga milliy qadriyatlarni taqdim etish imkonini berishi izohlangan;

turistik reklama va muloqot matnlarini tarjima qilishda subyektiv modallik va pragmatik moslashtirish kabi strategiyalardan foydalanish orqali turistlarga xizmatni yuqori darajada va ta'sirli qilib yetkazish imkonini berishi isbotlangan;

tarjimonlar uchun olingan natijalar madaniy almashinuv jarayonini qo'llab-quvvatlashda, madaniy kirish va moslashtirish strategiyalaridan foydalanish, ikki madaniyat o'rtasida ko'priki bo'lib xizmat qilishi ilmiy nazariy jihatdan asoslangan;

o'zbek tilidagi turizm terminologiyasini boyitish orqali xalqaro darajada o'ziga xos milliy mazmunga ega bo'lgan atamalar yaratilishi bo'yicha turizm sohasidagi tarjima an'alarini shakllantirish va ularni rivojlantirishda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda tadqiqotchilar uchun amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan yondashuv va usullarning zamonaviy tilshunoslik nazariyalariga mosligi hamda metodologik jihatdan asoslanganligi, tahlil materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning qat'iyligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar joriylanishi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pragmatik lingvistik, lingvokulturalogiya va qiyosiy tilshunoslik sohaslarini nazariy jihatdan boyitishda, ingliz, o'zbek va rus lisoniy madaniyatlarida turistik diskurs yuritishning qator qonuniyatlari va ushbu madaniyat vakillarining ongida turistik diskurs mazmuni shakllanishini belgilovchi qoidalar to'plamini shakllantirishda, kelajakda turli tizimli tillarda turistik diskurs shakllanishining lisoniy-madaniy xususiyatlarini o'rganishda manba bo'lib xizmat qilishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turistik diskurs va tarjima nazariyasining lingvistik, semiotik va pragmatik jihatlarini chuqur o'rganish orqali turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga, turistlar ehtiyoj va qiziqishlarini qondirishga hamda milliy va xalqaro darajada madaniy almashinuvni rivojlantirishga xizmat qilishda namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot natijalari turizm xizmatlari, tarjimonlar va turistik tashkilotlar uchun amaliy ko'rsatmalar sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, turistik diskursda lingvistik va madaniy moslashuv, pragmatik yondashuvlardan foydalanish turistlarga madaniy boyliklar haqidagi ma'lumotni yetkazish, muloqot jarayonida tushunmovchilik va madaniy farqlarni bartaraf etish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu natijalar, ayniqsa, turistik reklama va yo'riqnomalar yaratishda, turistlarni turli madaniyatlar bilan tanishtirishda va xalqaro turizm diskursida milliy-madaniy o'ziga xoslikni ta'minlashda, shuningdek, tarjima jarayonida qabul qiluvchi madaniyatga moslashgan mazmun yaratishda foydali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, turistik diskursdagi terminologik va lingvistik mosliklarni ta'minlash orqali, ushbu sohadagi matnlar sayyohlar uchun tushunarli, qiziqarli va ma'lumotlarga boy tarzda yetkaziladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz, o'zbek va rus turistik diskurs voqelanishining milliy-madaniy va pragmatik xususiyatlarini aniqlashda ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

turistik diskursning lingvomadaniy andazalarini tadqiqotda ishlab chiqilgan parametrlarga asoslangan holda tadqiq qilish modelidan Ruminiyaning Oradea universitetida (University of Oradea) bajarilgan “The analyse and generation of the models and politics for regional development based on valorisation of heritage and cultural identities” mavzusidagi PN-III-P1-1.2-PCCDI-2017-0686-son fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Oradea universitetining 2024 yil 2 noyabrdagi 02/11-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi madaniy merosning o'ziga xos milliy xususiyatlarini aniqlash va ularni tizimli ravishda tavsiflashga imkon bergan;

xorijiy mamlakatlarning ta'lim va ilmiy muassasalarida “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti hamkorligida “O'zbekshunoslik” (“Uzbek Studies”) kafedralarini tashkil qilish va rivojlantirish yo'nalishida atoqli kinoijodkorlar tomonidan yaratilgan eng sara filmlarni ingliz va rus tillarida subtitrlar bilan ta'minlab borish maqsadida onlayn darslar, ma'ruza va taqdimotlar o'tkazishda milliy va xalqaro turistik terminologiya tizimi o'ziga xos tarzda saqlangan holda, lingvistik va madaniy kontekstlarga mos keladigan yangi tarjima usullari bo'yicha asoslangan takliflar 2024-yil 12-yanvardagi PQ-19-son “O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni xorijiy davlatlarda keng targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar” Dasturiga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2024 yil 12 noyabrdagi 03-12-17-7910-son ma'lumotnomasi). Natijada, kinofilmlarni ingliz va rus tillarida subtitrlar bilan ta'minlab borish maqsadida onlayn darslar, ma'ruza va taqdimotlar o'tkazishda lingvistik va madaniy kontekstlarga mos keladigan yangi tarjima usullaridan foydalangan;

metaforik modellar orqali turizm diskursida madaniy rang-baranglikni yaratish va ta'sirchan kommunikatsiya vositalarini kengaytirish bilan bog'liq natijalar Xitoy Xalq Respublikasining “Ensuring Regional Development” loyihasi doirasida o'tkazilgan DL2022040003L-son “Research on expanding the international influence of Silk Road Culture and Promoting the Sustainable Development of Heritage Tourism” fundamental tadqiqot loyihasida qo'llanilgan (X.X.R Northwest universitetining 2024 yil 5 noyabrdagi 05/11-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi Silk Road madaniy merosini global maydonda targ'ibini kuchaytirish va mintaqaviy turizm rivojini qo'llab-quvvatlash uchun samarali vositalar yaratish imkonini bergan;

turistik diskursning lisoniy-semiotik tarkibi, pragmatik maqsadi va bajaradigan vazifalarini kommunikativ strategiyalari tanlovi nuqtai nazaridan aniqlashga doir xulosala va materialaridan O'zbekiston milliy universitetida Project №598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge – Transfer in Central Asia and China (UNICAC) loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston milliy universitetining 2024 yil 15 noyabrdagi 04/11-10703-son ma'lumotnomasi). Natijada qo'llanilgan metod “Matn tahlili”, “Diskursologiya”, “Pragmalingvistika”, “Tarjimashunoslik” kabi fanlar nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilgan;

turistik muloqot jarayonida lingvomadaniy axborotning rolini aniqlashga hamda instsitsional ko'rinishga ega ushbu turdagi diskurs tijorat maqsadi bilan

bir qatorda, bilim berish va zavq bag‘ishlashini bajarishga oid xulosalaridan Qarshi davlat universitetida bajarilgan SUZ-800-21GR-381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State university” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024 yil 19 noyabrdagi 04/3568-son ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’lim tizimi talabalari madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

turistik diskurs tarjimasi sharoitida adekvatlikka erishishning asosiy shartlaridan bo‘lgan tillararo ekvivalentlarni topish tarjimonning lisoniy kompetensiyasi, lingvokreativlik qobiliyati hamda pragmatik, kognitiv, sotsiomadaniy, ma’rifiy kabi nolisoniy omillar bilan bog‘liqligi haqidagi xulosalar va natijalardan “O‘zbekiston-Fransiya” do‘stlik jamiyatida bajarilgan 56-01/10 “Tarixiy yodgorliklar targ‘ibotida O‘zbekiston ziyoratgohlari katalogining (besh tillik) innovatsion imkoniyatlari” amaliy loyihasida foydalanilgan (“O‘zbekiston-Fransiya” do‘stlik jamiyatining 2024 yil 05 dekabrda 117-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning joriy qilinishi tarjimonlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga doir uslubiy ko‘rsatmalarni takomillashtirish hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xalqaro konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish e‘lon qilingan, shu jumladan, 1 ta monografiya, Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, ularning 11 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, shuningdek, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza tezislari shaklida chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy qism 233 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, approbatyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Diskursiv faoliyat tizimining tavsifi va tarkibi”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi bo‘limi diskursiv faoliyat jarayonining asosiy omillari masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tilshunoslikda antropotsentrizm yo‘nalishining shakllanishi inson omiliga asoslangan yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv, ayniqsa, til vositasida inson tafakkurining

mulohazalari va mazmunini anglashga, nutqiy jarayonlarning diskurs sifatida shakllanishiga e'tibor qaratadi. Ushbu bobda "diskurs" tushunchasi haqida olimlarning turlicha qarashlari va diskursning pragmatik omil bilan uzviy bog'liqligi hamda mazkur faoliyat kechishining asosiy omillariga oid muammolar tahlil qilingan.

Tilshunoslik sohasida diskurs tilning ma'lum zamon va makonda faollashuvi ko'rinishida talqin qilinadi. Diskursning ma'lum vaqt oralig'ida kechayotgan muloqotning dinamik xususiyati qayd etilib, matnning, aksincha, lisoniy faoliyat mahsuli sifatidagi statik xususiyati eslatib o'tiladi. Bizningcha, diskursning bir paytning o'zida ikki holatni ham qayd etuvchi, ya'ni ijtimoiy muhitga mos lisoniy faoliyat va ushbu faoliyat mahsulini aks ettiruvchi hodisa maqomidagi talqini maqsadga muvofiqdir. Diskurs tahlili nutqiy tuzilmalarni kontekst va kommunikativ vaziyat ko'lamida o'rganish, lisoniy tuzilmalarining mazmunini to'liq anglashga chuqurroq yordam beruvchi muhim tadqiqot usulidir. Turizm sohasidagi diskursning tahlili esa ushbu soha bilan bog'liq bo'lgan matnlar va nutqiy tuzilmalarni ajratish va tasniflashga imkon beradi.

Birinchi bobning ikkinchi bo'limi "Turistik diskursning tarkibi va tahlil usullari" deb nomlanadi. Mazkur bo'limda turizm sohasining jahon iqtisodiyotidagi muhim roli va turizmni turli soha mutaxassislari, jumladan, iqtisodchi, ruhshunos, tabiatshunos va sotsiologlar tomonidan o'rganib kelinishi yoritilgan. Qadimdan rivojlangan mamlakatlarda ommaviylashgan turizm maxsus adabiyotlarda ba'zan zavqlanish uchun sayohat amaliyoti sifatida tarflanadi. Shu bilan birga, turizmning ijtimoiy-falsafiy qirralari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtai nazarlarda o'rganilgan. Turizm diskursining milliy-madaniy ob'ektlar bilan sayohlarni tanishtirish, turizm mintaqalarining tuzilishi va madaniy meros xususiyatlari haqida tahliliy ma'lumot beriladi. Turistik sohadagi muloqotning tuzilishida uning qismlari o'rtasidagi munosabatlar muhimdir. Muloqot davomida umumiy tizimda turli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Turistik muloqot jarayonida uchta asosiy vazifa amalga oshiriladi, ya'ni o'zi va o'zgalarni tushunish, turli shaxslar bilan munosabatlarni barqarorlashtirish, o'zga odamlarga ta'sir o'tkazish va ishontirish⁷.

Turizm diskursi, o'ziga xos institutsional xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu diskurs turizm sohasidagi aloqalar va muloqot jarayonlarini tashkil etuvchi institutsional me'yorlar va qoidalar asosida amalga oshiriladi. Turizm diskursining asosiy shakllaridan biri professional diskurs bo'lib, unda asosan argumentativ strategiyalar qo'llaniladi. Bu strategiyalar turizm mahsulotlarini va xizmatlarini ma'lum mantiqiy dalillar orqali targ'ib qilishga qaratilgan. Boshqa tomondan, jamoatchilik diskursida manipulyativ strategiyalar keng qo'llanilib, turistik xizmat va mahsulotlarni emotsional usulda targ'ib qilish orqali mijozlarning ijobiy munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Turizm mutaxassislari ushbu diskursni chuqur o'rganib, samarali kommunikativ strategiyalarni qo'llash orqali muvaffaqiyatga erishishlari zarur.

⁷ Comunicarea în turism. URL: <https://ru.scribd.com/document/462839680/Comunicarea-in-turism>

Turistik diskursning lingvistik maqomi va o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bo'limda turizm kommunikatsiya va muloqot vositasi sifatida tasvirlangan. Turistik diskurs turizm bilan bog'liq ma'lumotlarni yetkazib berish bilan cheklanmay, madaniy almashuv va o'zaro tushunishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Turistik diskurs turli xil janr va nutq shakllarini o'z ichiga oladi, ular turistik yo'nalishlar va mahsulotlarni muvaffaqiyatli targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega. Mazkur diskurs keng qamrovli bo'lib, turli madaniyatlar, joylar va tajribalarni tushuntirishga xizmat qiladi.

Turistik diskursning asosiy janriga mansub matnlar, ya'ni sayohat veb-saytlarining lingvistik tahlili ularning asosida diskursiv polifoniya yotganligini ko'rsatdi. Sayohat veb-saytlardagi og'zaki va og'zaki bo'lmagan ma'lumotlarning bir qismi reklama maqsadlariga bo'ysundirilgan, ya'ni adresatga taqdim etilayotgan mahsulotning yuqori sifatlarini ma'lum qilish va uni sotib olish zarurligiga ishonirish istagi. Bu niyat makro va mikro darajalarda namoyon bo'ladi. Makro darajada bu maqsad turistik matnlarning polimodal tabiatini aks ettiradi, ya'ni sezgi qobiliyatining og'zaki usullari (so'zlashuv predikatlari) yoki og'zaki bo'lmagan usullar (musiqiy hamrohlik, videomateriallar, illyustratsiyalar) orqali ifodalanadi⁸. Mikro darajaga reklama maqsadida meyorativ (ijobiy baho) ma'noga ega til birliklaridan (*majestic, tilting madressas*) foydalanish, ijtimoiy obro'ni tasvirlash, ya'ni rangli suratlar ostidagi tavsiflar orqali muayyan ob'ektlarning yuqori obro'si yoki maxsus ahamiyatini tasvirlash (*The Malachite room of the Winter Palace*), ko'plik formasi va olmoshlardan foydalanish, ya'ni turli ijtimoiy va madaniy guruhlar yoki an'analarga ishora qilib, o'sha guruhlarini ko'plik shaklida ifodalash (*most Germans* yoki *the traditionally attired chimney sweeps*), sayyoh diqqatini jalb qilish va e'tiborini oshirish uchun qo'llaniladigan undash mazmunidagi gaplar (*it's worth going inside Bibi-Khanyam Mosque*) kiradi. Ushbu til birliklari reklama va sayohat diskursining xos jihatlarini namoyon qilish uchun ishlatiladi va joylar, ob'ektlar, tarixiy ma'lumotlar orqali e'tiborni jalb etish uchun xizmat qiladi.

Turistik diskurs janrlari g'oyaning xususiyatlari, mazmunni taqdim etish usullari va kompozitsiya hamda til xususiyatlariga qarab yozma va og'zaki janrlarga ajratiladi. Yozma turistik diskurs bosma matnlar va kompyuter orqali amalga oshiriladigan muloqotni o'z ichiga oladi, masalan, broshyuralar, sayohat yo'riqnomalari, prospekt va bukletlar, veb-saytlar, bloglar, virtual ekskursiya va turizm sohasi xodimlarining elektron muloqotlari. Bu janrlar ko'proq ma'lumot berishga va sayohatchilarni yo'naltirishga qaratilgan.

Og'zaki turistik diskurs esa to'g'ridan-to'g'ri va vositachilik qilingan shakllarda namoyon bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri og'zaki diskurs ekskursiyalar, gidlar va sayohat xizmatlarini taqdim etishda, tur operator va kontragent o'rtasidagi dialog (aviachipta, mehmonxona, ekskursiyalar buyurtmasi)da ko'rinadi. Vositachilik qilingan og'zaki diskurs esa audio yo'riqnomalar yoki videolar orqali yetkaziladi.

⁸ Новикова Э. Ю. Жанровые, ценностные и транслатологические характеристики международного туристического дискурса в немецкой и русской лингвокультурах: дисс. ... док. фил. наук. - Волгоград, 2018. - 498 с.

Turizmga oid veb-saytlarining lugʻaviy tuzilishi turistik diskursning gibrid tabiati bilan belgilanadi, bu esa ikki tilda birliklarning qoʻllanilishi va reklama diskursi usullari bilan ilmiy uslubning qoʻllanilishi orqali namoyon boʻladi.

Turistik diskurs oʻziga xos semiotik belgilardan tashkil topgan boʻlib, unda til, imo-ishoralar, belgilarning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday qabul qilinishi va uzatilishi oʻrganiladi. Ushbu jarayon til birliklari va belgilar tizimlarining oʻzaro aloqasini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Semiologik nuqtayi nazardan qaraganda, turizm diskursida har bir belgi maʼlum bir mazmun va madaniy maʼno beradi. Bu tarkibiy qismlar turistlarning joylarni qanday idrok qilishi va mazmunni qanday tushunishlariga kuchli taʼsir koʻrsatadi.

Turistik yoʻriqnomalar, reklama materiallari va onlayn platformalar yordamida turistlarga joylarning tarixiy, madaniy va estetik jihatlari taqdim etiladi. Vizualashtirish va lingvistik kodlarning kombinatsiyasi orqali turistlarning ongida kuchli estetik va hissiy taassurot yaratiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Turistik diskursning pragmatik va metaforik tarkibi”** deb nomlanib, unda turizm diskursida pragmatik komponentning voqelanishi, gastroturizm diskursida pragmatik moʻljalning ifodalanishi, turistik diskursning metaforik atamaları oʻrganilgan.

Turistik diskurs turizm ishtirokchilari oʻrtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu diskursda pragmatik komponent bir necha omillar orqali namoyon boʻladi, jumladan, turizm xizmatlarida ishtirok etayotgan tomonlar oʻrtasidagi tengsizlikni yashirish, manzilni jozibador qilib koʻrsatish va nutq usullarini tanlash orqali sayohat tajribasini yuksaltirishga qaratilgan strategiyalar mavjud:

1. Tengsizlikni yashirish strategiyasi. Bu borada, turistik diskursda xizmatchilar (gidlar, agentlar) va turistlar oʻrtasidagi tengsizlikni yashirish uchun doʻstona va qoʻllab-quvvatlovchi nutq usullari qoʻllaniladi. Xizmatchilar oʻz bilimlari va tajribasini namoyish etish orqali sayyohlarda manzilga nisbatan qiziqish va ishonch uygʻotadi;

2. Manzilning jozibadorligini taʼminlash strategiyasi. Bunda, emotsional va kuchli soʻzlarni qoʻllash orqali manzilning ijobiy tomonlari taʼkidlanadi. Reklama va yoʻriqnoma matnlarida *“moʻjizaviy”*, *“sirli”*, *“gʻaroyib”* kabi soʻzlar yordamida sayyohlarning his-tuygʻulariga taʼsir koʻrsatilib, sayohatga undaladi;

3. Yaqin munosabatni oʻrnatish strategiyasi. Buerda, turistik yoʻriqnomalar muallifi yoki agentlik oʻzini sayyohning maslahatchisi va yoʻlboshchisi sifatida koʻrsatib, sayyohlar bilan yaqin munosabatni oʻrnatishga harakat qiladi. Bu jarayonda sayyohlarga yoʻriqnomalarda *“Tashrifingiz davomida bu joyga albatta boring”* kabi tavsiya beruvchi iboralar qoʻllanadi. Ushbu strategiya orqali sayyohlarda qiziqish va ishonch hissi uygʻotiladi;

4. Sayyohat tajribasi orqali oʻzaro aloqa strategiyasi. Shu tariqa, sayyohlarning oʻz tajribalari orqali destinatsiya haqida mulohaza bildirishlari va turizm diskursini boyitishga yoʻnaltirilgan. Bu jarayonda pragmatik jihatlar, yaʼni sayyohlarning qoniqishi va taassurotlari hisobga olinadi, bu esa muloqotning amaliy samaradorligini oshiradi.

Mazkur tadqiqot ishimizda turistik yo'riqnomalar, veb-sahifalar tahlili natijasida mualliflar tomonidan o'zini ekspert sifatida taqdim etish uchun qo'llanilgan quyidagi hamkorlik taktikalarini aniqladik:

birinchidan, umumlashtirish taktikasi. Bu borada, turistik diskurs subyekti barcha realliklar to'plamining yadro unsurlarini ajratib ko'rsatadi, o'zining keng bilimiga ega ekanligini namoyish etadi. Bu taktika orqali muallif destinatsiyaning umumiy xususiyatlarini ta'kidlaydi. Masalan, *In Uzbekistan people like to eat well and tasty*;

ikkinchidan, aniqlashtirish taktikasi. Bunda, umumlashtirishga zid ravishda, realliklarni aniq va yaqqol ko'rsatish orqali sayyohlarga batafsil ma'lumotlar beriladi. Bu taktika sayyohlarda destinatsiya haqida chuqurroq tasavvur hosil qiladi. Masalan, *My chocoholic readers are enthusiastic about English chocolates. Their favourites include Cadbury Wispa Goldbars (filled with liquid caramel), Cadbury Crunchie bars, Nestle's Lion bars, Cadbury's Boost bars (a shortcake biscuit with caramel in milk chocolate), and Galaxy chocolate bars (especially the ones with hazelnuts). Thornton shops (in larger train stations) sell a box of sweets called the Continental Assortment, which comes with a tasting guide. The highlight is the mocha white chocolate truffle. British M&Ms, called Smarties, are better than American ones*⁹;

uchinchidan, mahalliy stereotiplarni bilish taktikasi. Buerda, mahalliy stereotiplarni bilish va ulardan foydalanish orqali madaniy o'ziga xosliklarni sayyohlarga yetkazadi. Tasvirlangan joyning aholisini farqlaydigan xulq-atvor stereotiplari, shaharni nomlaydigan asosga "-cha" va xalq yoki millatni nomlaydigan asosga "-ona" qo'shimchasi bilan birlashtirilgan ravishlar yordamida kodlanadi. Masalan, *Ikkinchi marotaba tashkil etilayotgan tadbirda yurtimizning san'at sohasi vakillari tomonidan o'zbekona milliy kuy-qo'shiqlar va raqslar ijro etilib, yig'ilganlar e'tiborini qozonishmoqda*¹⁰; **Samarqandcha** zig'ir osh eng mazzali oshlardan hisoblanadi...; Tayyorlash usuli va qo'shimcha ingredientlar shahardan shaharga qarab farqlanadi, ayniqsa, **Toshkentcha**, **Samarqandcha**, **Buxorocha** va **Shahrisabzcha** palov o'ziga xos farqlari bilan ajralib turadi¹¹. Bu taktika sayyohlarda qiziqish uyg'otib, ularni madaniyatga yaqinlashtiradi;

to'rtinchidan, tajriba va bilim uyg'unligi taktikasi. Muallif mamlakat haqida ob'ektiv ma'lumotlarni o'zining shaxsiy tajribasi bilan birlashtiradi, hamda tajribasiga tayanib, ekspert sifatida fikr bildiradi va joylardagi diqqatga sazovor joylarni rejalashtirilgan tartibda sanab o'tadi. Bunda, ingliz tiliga transliteratsiya qilingan nomlar (mahalliy joy nomlarining inglizcha yozilishi) kiritiladi, shuningdek, muallif mahalliy til yozuvini va, agar imkon bo'lsa, tarjimani ham keltiradi. Masalan, *Nearly all wear the **doppilar or dopy**, a black, four-sided skullcap embroidered in white; A better option is the **Ahotny Reodd (Hunter's Row)** in the courtyard behind the history museum, open evenings only; There's fine*

⁹ Steves R. London. – U.S.: Avalon Travel Publishing, 2004. – 364 p.

¹⁰ Uzbekistan.travel. URL: <https://uzbekistan.travel/uz/o/londonda-ozbekistonning-turizm-imkoniyatlarini-targib-etuvchi-tadbirlar-otkazilmoqda/>

¹¹ URL: <https://www.orexca.com/rus/uzbekistan.htm#7>

shashlik, plus fruit and vegetables, available from stalls in the **bazar** on **Krasnoarmeyskaya**¹².

“Individuallik topologiyasi” tushunchasi orqali muallif o‘z sayohatnomasida tasvirlagan joylarning standart bo‘lmagan, boshqacha topologik xususiyatlarini ifodalaydi, ya’ni bu joylarning boshqa ob’ektlarga nisbatan joylashuvi, o‘ziga xos va o‘zgacha ekanligi haqida gapiradi. Masalan, *O‘zbekistonning har bir burchagi o‘ziga xosligi bilan o‘ziga jalb qiladi - Toshkentda siz dunyodagi eng go‘zal metroda yurishingiz yoki Usmon Qur‘onning qadimiy qo‘lyozmasini ko‘rishingiz mumkin. YUNESKOning madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy shaharlarda - Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xivada qadimgi me‘moriy obidalarni ziyorat qilib, o‘tgan davrlarning aks-sadolari saqlanib qolgan, mamlakatning janubiy qismida - Surxondaryo, tog‘ daralari bo‘ylab sayohat qilish yoki Termiz yaqinidagi qadimiy shaharlarning xarobalarini ko‘rish mumkin*¹³.

Emotsional taktikalar begona madaniyatdan qo‘rqish hisini bartaraf etish taktikasi. Ushbu taktika turistik diskursda begona madaniyatga nisbatan qo‘rquvni bartaraf etishga xizmat qiladi va turistlarning o‘zlarini qulay his qilishlariga yordam beradi. Mazkur taktikani o‘zbeklashtirish, mimikriya, devalvatsiya kabi taktikalarga ajratishimiz mumkin: a) o‘zbeklashtirish: begona va o‘zlik o‘rtasidagi to‘siqlarni olib tashlash uchun milliy madaniy kodlar ishlatiladi. Masalan: *Keyinchalik Prezident Kennedi 1970 yilda Oyga odamni eltish uchun fazo kemasini yaratish – “Apollon” dasturini e‘lon qildi. 1963 yilda Prezident o‘limidan so‘ng bu joy J. Kennedi nomli fazoviy tadqiqotchilar markaziga aylandi*¹⁴. Matndagi misolda Prezident Kennedining “**Apollon**” dasturi haqida so‘z borgan. Ushbu dastur AQShning Oyga odamni eltish bo‘yicha fazoviy loyiha bo‘lib, aslida amerikaliklar uchun yaqin tushuncha bo‘lsa-da, o‘zbek tilida tushuntirilganda bu tushuncha bizning madaniy va til kontekstimizga moslab, tanish qilib taqdim etiladi.

Mimikriya. Turizmدا sayyohlarning mahalliy madaniyatga moslashishi va farqlarni yumshatishga qaratilgan jarayonni ifodalaydi. Sayoh va mahalliy aholi o‘rtasidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yoki farqlar til va xulq-atvor vositalari yordamida moslashtiriladi va bartaraf etiladi: *Dress codes vary throughout Central Asia. The main places where you should dress conservatively is in Uzbekistan’s Fergana valley. Western style clothes are acceptable in the capital cities and in large towns like Samarkand that see a lot of tourist traffic*¹⁵. Yuqorida keltirilgan misoldan ko‘rinadiki, Lonely Planet nashriyotining Central Asia yo‘riqnomasida berilgan **Does & Don’ts** bo‘limida mimikriya usulidan mohirona foydalanilgan. Masalan, yo‘riqnomada Markaziy Osiyoning turli hududlarida kiyinish qoidalarining farqli ekanligi ta’kidlanadi. Farg‘ona vodiysi kabi joylarda konservativ tarzda kiyinish tavsiya qilinsa, Toshkent yoki Samarqand kabi yirik shaharlarda g‘arbona kiyimlar qabul qilinishi mumkinligi aytiladi.

¹² Mayhew B. Central Asia. – Australia.: Lonely planet, 1999. – 576 p.

¹³ Uzbekistan.travel. O‘zbekiston haqida. 2024. URL: <https://uzbekistan.travel/uz/uzbekistan/>

¹⁴ URL: <https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/dunyoning-zamonaviy-etti-muzhizasi/>

¹⁵ Mayhew B. Central Asia. – Australia.: Lonely planet, 1999. Pp. 66, 80.

Devalvatsiya taktikasi. Bu borada, yozma matnda biror narsaning ahamiyatini kamaytirish yoki uni pastroq ko'rsatish uchun foydalaniladigan usuldir. Bu taktika kinoyadan foydalanish orqali amalga oshiriladi: *Endi temir yo'llar bo'ylab oq va zaif sigir yuribdi. U qanday qilib u yerda paydo bo'ldi? Agar birdaniga poyezd kelsa-chi? Hech kimni bu qiziqitirmaydi. Ajoyib mamlakat, Hindiston!*¹⁶.

Tadqiqot davomida gastro-turizm diskursi bo'yicha tahlil olib borilgan bo'lib, unda turistlarni o'ziga jalb etish uchun sayohat qilishda o'ziga xos rol o'ynovchi gastronomik tajribalar va nutqiy vositalar o'rganilgan.

Gastro-turizm diskursida, sayohat yo'riqnomalarida turli nutqiy aktlar (asosan, direktiv (yo'riqnoma, ko'rsatma), suggestiv (tavsiyaviy), va preskriptiv (ko'rsatma beruvchi)) vositalar yordamida turistlarni sayohat qilishga undash uchun keng ko'lamda pragmatik usullardan (hissiy tuyg'ularni uyg'otuvchi sifatlovchi iboralar va chorlovchi jumlarlar) foydalanilganligi ilmiy asoslangan. Masalan, *"Taste the Uzbekistan!"* yoki *"If you want to enjoy the most delicious pilaf, succulent lamb on charcoal... visit Uzbekistan!"* kabi iboralar orqali adresatga aniq taklif va tavsiyalar beriladi. Ushbu diskurs orqali o'zbek oshxonasining eksklyuziv va jozibador qirralarini yoritish, shuningdek, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash maqsad qilingan. Bu esa gastro-turizmning turistlar va mahalliy aholi o'rtasida madaniy almashuv va ijtimoiy anglashni rivojlantiruvchi muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Metafora turistik diskursda turli manzillar, sayohatlar va turizm xizmatlarini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Turizm reklamasi va ma'lumotnoma materiallarida metaforalar keng qo'llaniladi, chunki ular sayohat joylarini jonli, hissiy va esda qolarli tarzda tasvirlash imkonini beradi. Metafora turizm sanoati lug'ati terminologiyasini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Metafora – badiiy ifoda vositasi bo'lib, unda bir narsa yoki tushuncha boshqa narsa bilan bilvosita taqqoslanadi yoki ularga o'xshatiladi.

N.D.Arutyunova metaforani uslubiy vosita emas, balki konseptual fikrlash va dunyoni qabul qilish jarayonida asosiy element sifatida ko'radi. Uning fikricha, metafora bilimlarni shakllantirish va uzatishda markaziy rol o'ynaydi, chunki u bir sohadagi ma'nolarni boshqasiga ko'chirish imkonini beradi. J.Lakoff esa, metaforani retorik vosita emas, balki fikrlash va dunyoni tushunishning asosiy mexanizmi deb hisoblaydi. Turistik diskurs terminologiyasida ishlatiladigan metaforalarning ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

1. Strukturaviy metaforalar.

Block: oldindan, odatda ulgurji sotuvchilar, sayyohlik operatorlari yoki qabul qiluvchi operatorlar tomonidan, ularni sayyohlik paketlarining tarkibiy qismlari sifatida sotishni ko'zda tutgan holda, oldindan band qilingan bir qator xonalar, o'rindiqlar yoki joy.

Qiymatning ko'chirilishi amalga oshiriladigan donor-soha "Uy va xo'jalik" sohasidir. Assotsiatsiya vektori - metaforik ko'chirish. Chunki insonning asosiy dam olish joyi xona hisoblanadi, shuning uchun uning bandligi mehmonxona yoki

¹⁶ Монгуш М.В. Путёвые заметки: Индия // Научный электронный архив "CyberLeninka". 2008. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/putevye-zametki-indiya>

otelning umumiy bandligi bilan assotsiatsiya qilinadi. Nishon-soha - mehmonxona xizmati tashkil etilishi;

2. Yo‘nalishli metaforalar.

Turizm sohasida yo‘nalishli metaforalar juda muhim o‘rin tutadi. Ular turli jarayonlar va munosabatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Turizm sohasida joylashuv yoki vaqt va makon bo‘ylab harakatlanish bilan bog‘liq metaforik atamalarning misollarini keltiramiz:

Cross-country: Qishloq joylari yoki mahalliy joylar bo‘ylab sayohat qilishni, turli landshaftlar va yo‘nalishlar orqali yo‘l topishni anglatadi. Metafora “cross” fe‘lining ichki shaklini voqelantirishga asoslangan – o‘tish, yaxlitlikni buzish. Metaforik ma’no leksik birliklarning birikuvi natijasida yaratilgan;

3. Ontologik metaforalar.

Turistik terminlar sohasida qo‘llaniladigan ontologik metaforalar mavhum tushunchalarga aniqroq, “jonli” xususiyatlarni berish uchun ishlatiladi:

Shahar yuragi: shahar jonli mavjudot sifatida tasvirlanadi, uning yuragi markaziy, eng jonli va boy qismni ramziy ifodalaydi.

Oshxona tili: kulinarlik g‘oyalar, hissiyotlar va madaniy xususiyatlarni ifoda etish uchun ishlatiladigan til sifatida tasvirlanadi, bu esa uning kommunikativ va ifodaviy vazifasini ta’kidlaydi.

Tabiat quchog‘i: tabiat quchoqlay oladigan mavjudot sifatida tasvirlanadi, bu esa himoya, qulaylik va tabiiy muhitga yaqinlik hissini yaratadi.

Ushbu ontologik metaforalar turistik joylarning mohiyatini chuqurroq his qilish va tushunishga yordam beradi, mavhum tushunchalarni yanada tushunarli va yaqin obrazlarga aylantiradi;

4. Sinestetik metafora.

Turistik atamalar, sinestetik metaforalardan foydalanib, turli his-tuyg‘ularni birlashtiradi va shu orqali jonli, esda qolarli tavsiflar yaratadi. Bu metaforalar sayohat tajribalarining bayonini boyitish bilan birga, tasvirlangan joylarga chuqurroq hissiy bog‘lanish uyg‘otadi.

Velvet nights (qaymoqdek tun, baxmaldek tun): Chuqur tinch, hashamatli yoki boy atmosferali oqshomlarni yodga soladi. Bu atama tunni silliq, deyarli taktil hissiyotini anglatadi, bu esa sehlash va tasalli beruvchi chuqur tajribani ifodalaydi.

Masalan: *Tasavvur qiling, tog‘lar bag‘rida joylashgan kichik, qadimiy shaharni: quyosh botganidan keyin ko‘chalar mayin va iliq chiroqlar bilan yoritiladi. Baxmaldek tunlarda havo salqin va musaffo bo‘lib, unda yonayotgan o‘tin hidining nozik nafasi va uzoqdan kelayotgan gitaraning sokin kuyini his qilish mumkin*¹⁷.

Tarjimasi: *Tasavvur qiling, kichik, qadimiy shahar tog‘lar orasida joylashgan, quyosh botgach, ko‘chalar yumshoq, iliq chiroqlar bilan yoritiladi. Mana shunday sokin kechalarda havo salqin va tiniq, yog‘och tutuni nafis hidini va gitara serenadasining uzoq tovushini olib yuradi.*

5. Sodda metaforalar.

¹⁷ Дубровский И., Кунявский Л., Кусый И. Италия – Москва.: Вокруг света, 2012. – 234 с.

Turistik atamalarda sodda metaforalar ko‘pincha jonli tasvirlarni ishlatib, manzillar, tajribalar va diqqatga sazovor joylarni bo‘lajak tashrif buyuruvchilar uchun yanada tushunarli va esda qolarli qiladi:

A gem of the sea: Bu ibora go‘zal qirg‘oqdagi shaharcha yoki orolni tasvirlashda ishlatiladi, u qimmatbaho va izlaniladigan go‘zal tosh kabi qadrlilik ekanligini bildiradi.

6. Kengaytirilgan metafora.

Turistik atamalarda kengaytirilgan metaforalar bir metaforadan keng foydalanish orqali mavzuni va metaforik tasvirni botindan bog‘laydi, tavsiflarni boyitadi va yanada sho‘ng‘in tajribasini taqdim etadi:

The Melting Pot of Flavors. Buerda, o‘zining kulinar xilma-xilligi bilan tanilgan manzil uchun bu metafora oddiy ingredientlarning aralashmasidan tashqari, oshxona madaniyatini shakllantirgan tarixiy, madaniy va ijtimoiy ta’sirlarni uyg‘otadi. Har bir taom migratsiya, savdo va aralashuv hikoyasini aytib beradi, mehmonlarni dunyoni bir luqma bilan tatib ko‘rishga undaydi.

Masalan: *Straddling two continents, Istanbul’s cuisine embodies a melting pot of flavors influenced by European and Asian culinary traditions. Dishes like kebabs, mezze, and sweets like baklava, offer a taste of the rich cultural interchange that has shaped the city*¹⁸.

Tarjimasi: *Ikki qit’ani bog‘laydigan Istanbul oshxonasida Yevropa va Osiyo oshxona an’analarining ta’siri ostida shakllangan ta’mlar eritmasi mujassam. Kebablar, mezzeler va baklava kabi shirinliklar shaharni shakllantirgan boy madaniy almashinuvning ta’mini taklif etadi.*

Metaforalar, sayohat joylarining madaniyati, tabiat va tarixini osongina tushuntirish imkonini yaratadi. Shuningdek, bu iboralar sayohatchilarga yangi o‘lkalarni o‘rganishga va ulardan zavq olishga ilhom beradi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Turistik diskursning lingvomadaniy ko‘rsatkichlarini voqelantiruvchi omillar”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi bo‘limi **““Turistik ob’ekt” mavzusidagi nutq xabarini shakllantirish dasturi va uni amalga oshirishga ta’sir qiluvchi pragmatik omillar”** mavzusiga bag‘ishlangan. Turistik diskursda “turistik ob’ekt”ni tasvirlashda nutq xabarlarini shakllantirish va kompozitsion modellardan foydalanish jarayonida pragmatik omillar muhim ahamiyatga ega. Bu omillar muallifning adresatga ta’sir o‘tkazish strategiyasini belgilaydi. Nutq xabarlarini shakllantirish jarayonida ishlatiladigan kompozitsion va kognitiv modellarga quyidagilar kiradi:

1. Markazdan qochirma kompozitsiya – shahar yoki ob’ekt markazidan sarhadga kengayuvchi tasvirlash tarixiy rivojlanishni ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladi. Bunday tasvirlash, asosan, tarixga qiziqadigan o‘quvchi (adresat) uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u shaharning markazidan boshlab, tashqi chegaralarigacha bo‘lgan rivojlanishini ochib beradi. Shunday qilib, bu kompozitsion tuzilma o‘quvchiga shahar rivojlanishining turli bosqichlarini tushunishga yordam beradi va tasvirni o‘ziga xos tartibda kengaytirib, o‘quvchini shaharning chekka qismlarigacha olib boradi;

¹⁸ URL: <https://journal.tinkoff.ru/aydin/>

2. Marshrut yaratuvchi kompozitsiya – turistik manzillarga to‘g‘ri ketma-ketlikda yo‘llanma beradi va virtual sayohat tajribasini yaratadi. Ushbu turdagi yo‘riqnoma o‘quvchiga haqiqiy gid xizmatlariga ehtiyoj sezmasdan, yo‘nalishni mustaqil o‘rganish imkonini beradi. Yo‘riqnomaning yaratgan muallif diqqatga sazovor joylarni ketma-ket tushuntirib berish orqali gid rolini bajaradi. Marshrut yaratuvchi kompozitsiyaning misoli sifatida Parijda bir kunni tavsiflash xizmat qilishi mumkin: *bu Eiffel minorasiga ertalabki tashrif bilan boshlanadi, keyin Sena bo‘ylab sayrga davom etadi Louvrqa qadar, so‘ngra Notr-Dam soboriga tashrif buyuriladi va Monmartr kvartalida kechqurun tugaydi, u yerda balandlikdan shahar manzaralaridan bahramand bo‘lish va mahalliy restoranlardan birida kechki ovqatlanish mumkin.*

Bu yondashuvning afzalliklaridan biri, quruq ma’lumotni jonlantirish imkoniyati, ya’ni statik ma’lumot o‘rniga sayohatchiga jonli va dinamik tajriba taqdim etishdir. Statik tasvirlar o‘rniga bu tuzilma orqali sayohat jarayoni dinamik tarzda, go‘yoki o‘quvchi real harakat qilayotgandek ifodalanadi.

Bundan tashqari, interaktiv kommunikatsiyani uyg‘otish ham ushbu yondashuvning muhim jihati hisoblanadi. Bu ko‘pincha 2-shaxs fe’llari (masalan, “*bo‘lsangiz*”, “*tayinlaning*”, “*yuring*”, “*o‘ting*”) yoki 2-shaxs olmoshlari (“*siz*”) orqali amalga oshiriladi. Bu usul o‘quvchiga yoki sayohatchiga bevosita murojaat qilinayotgandek hissiyot beradi;

3. Mantiqiy kompozitsiya – muhim nuqtalardan boshlanib, keyinchalik kamroq ahamiyatli joylarga o‘tadi va vatanga bo‘lgan hurmatni shakllantirish maqsadida ishlatiladi. Bu yondashuv orqali, sayohatga oid tasvirlar, rasmiylikdan tortib, dam olish joylariga qadar mantiqiy tarzda ketma-ketlikda beriladi va taqdimotning ideologik jihatini kuchaytiradi;

4. Zinali kompozitsiya – o‘quvchini mavzuga bosqichma-bosqich kiritish uchun qulay usulda ma’lumotni ketma-ket berish orqali qiziqish uyg‘otadi. Bu usulda ma’lumot umumiydan aniq tafsilotlar tomon ketma-ketlikda beriladi, go‘yo zinapoyadan yuqoriga chiqayotgandek har bir qadamda yangi va chuqurroq ma’lumot taqdim etiladi. Ushbu kompozitsiya tatbiqi uch qadamdan iborat, ya’ni “*Birinchi marta eshitaman*”, “*Ko‘proq bilmoqchiman*” va nihoyat “*Joyda nima ko‘rishimni bilaman*”.

Nutq xabarlarini shakllantirishda turistik obyektlarni taqdim etish uchun quyidagi kognitiv metonimik modellardan foydalaniladi: tipik namuna (butun obyektning umumiy tushuntirish orqali ifodalash): *O‘zbek dehqoni* - O‘zbekistondagi tipik dehqon insoni ham o‘z madaniyati, urf-odatlar, mehnatsevarligi va mehmondo‘stligi bilan butun o‘zbek xalqining obrazini yaratishi mumkin. U O‘zbekistonning agrar madaniyati va boy an‘analarini ifodalaydi; ajralib turuvchi namuna (obyektning eng taniqli elementlariga asoslanib taqdim etish): *Париж невозможно представить без Эйфелевой башни, это выражение любви и света. Это не просто металлическая конструкция; это сердце Парижа, откуда открывается потрясающий вид на город*¹⁹; idealizatsiya modeli (eng yaxshi va jozibali jihatlarni ko‘rsatish va kamchiliklarini e’tiborsiz qoldirish orqali

¹⁹ Базоева В., Бурдакова Т., Бакир В. Франция – Москва.: Вокруг света, 2012. – 618 с.

tasvirlash) va proposition model (obyektning vaqt davomida o'zgarishini tasvirlash) tahlil qilinadi: *С давних времён регион Кансай был торговым центром страны. Он и сегодня источает особую энергию, создаёт атмосферу, притягивающую туристов*²⁰.

Ushbu tahlilga ko'ra, turistik diskursning asosiy maqsadi nafaqat ma'lumot berish, balki motivatsiya berish va adresatning bilim doirasini kengaytirishdir.

Ushbu bobning "Adresatning madaniy kompetentsiyasini voqelantiruvchi leksik vositalar" deb nomlangan ikkinchi bo'limida turistik diskurs orqali adresatning madaniy kompetentsiyasini kengaytirishga qaratilgan leksik vositalar tahlil qilinadi. Turistik matnlar tijorat maqsadlariga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ma'lumot beruvchi va zavq bag'ishlovchi vazifalarga ega. Ushbu matnlar maxsus terminlar, tarixiy atamalar, diniy manbaga ega so'zlar, mintaqada mavjud bo'lgan, boshqa joylarda deyarli ishlatilmay qolgan realiyalar, O'rta Osiyo mintaqasida milliy turmush tarziga oid predmetlar, ya'ni etnografizmlar, boshqa xalqlar turmush tarziga oid realiyatlarni bildiruvchi ekzotizmlar va barbarizmlar orqali adresatning lug'at boyligini kengaytiradi va madaniy bilimini oshiradi.

Qo'llanmalarning boshqa ommaviy nashrlardan farqli o'laroq ajralib turadigan xususiyati tayyorlanmagan o'quvchi uchun atamalarni tushuntirishga yo'naltirilmaganligidadir. Choy ichish marosimini belgilash uchun ishlatiladigan "**Sado**" termini yapon milliy terminologik tizimining bir qismi hisoblanadi va qo'shimcha tushuntirishlarsiz tayyorlanmagan xorijiy o'quvchi uchun tanish bo'lmasligi mumkin, bu qo'llanmaning muayyan darajada oldindan bilimlarga ega bo'lishni taxmin qiladigan tuzilishiga xosdir. Muallif murakkab yoki maxsus atamalarni ishlatib, o'quvchini yanada chuqurroq o'rganishga undaydi va o'quvchidan yuqori bilim saviyasi yoki mustaqil izlanish qobiliyatini kutadi. Murakkab matnni erkin tushunadigan qabul qiluvchiga bu intellektual zavq keltirishi mumkin. Odatda, ma'nosini topish qiyinchilik tug'diradigan tarixiy atamalar shifrlanadi. Masalan, **Sabaism**, *the worship of stars and celestial bodies, was especially widespread by ancient people of northern Ethiopia*. Ushbu matnda "**Sabaism**" so'zining ma'nosini topish qiyinchilik tug'dirishi mumkinligi sababli, unga izoh berilgan. Bu atama tarixiy va diniy ma'noga ega bo'lib, uning kelib chiqishini tushunish uchun antropologik yoki diniy kontekstni bilish talab qilinishi mumkin. Shu sababli, oddiy o'quvchilar bu atamani izohsiz tushunishi qiyin bo'lishi mumkin.

Demak, turistik matnlar milliy obrazni shakllantirishda ishlatiladigan terminlar orqali o'quvchiga mamlakatning hududiy, tarixiy va madaniy jihatlari haqida ma'lumot beradi, shuningdek, milliy leksika orqali adresatning madaniy kompetentsiyasini oshiradi.

Turistik diskursda atoliq otlar metatil refleksiya vositasi sifatida muhim o'rin tutadi, ayniqsa, sayohat qo'llanmalarida ulardan foydalanish orqali mamlakatning siyosiy, geografik va madaniy qiyofasi shakllantiriladi. Ushbu guruhdagi otlar turli xil tarixiy shaxslar, diqqatga sazovor joylar va voqealar bilan bog'liq bo'lib, sayyohlarga manzilning madaniyati va tarixiy ahamiyatini ko'rsatishga xizmat

²⁰ URL: https://static.visitjapan.ru/storage/app/media/nashi-izdaniya/Your-Guide-to-Japan_2018.pdf

qiladi. Metatil refleksiya tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa va madaniyatshunoslikda keng tadqiq qilingan murakkab tushunchalardan biri bo'lib, bu jarayonda biror matn yoki hodisa yuzasidan tahliliy fikr yuritish, qayta sharhlash yoki o'zgarishlarni ko'rsatish amalga oshiriladi. Atoqli otlar turli kommunikativ va ontologik vazifalarni bajaradi, masalan, madaniy bilimlarni kengaytirish, tarixiy va geografik nomlarning ma'nolarini anglatish va ma'lum shaxs yoki joyning qadr-qimmatini ta'kidlash orqali madaniy kompetensiyani rivojlantiradi. Bizning vazifamiz refleksiya ob'ektlarini ko'rsatish, ularning lisoniy ko'rsatkichlarini aniqlash, shuningdek, turlari va vazifalarini tavsiflashdan iborat edi.

Turizm qo'llanmalari matnlaridagi metatil refleksiya ob'ektlari sifatida keltirilgan tabiiy ob'ektlar (masalan, daryolar, qo'ltiqlar, tog'lar va shu kabi tabiiy landshaftlar) ko'pincha mifopoetik yondashuv asosida shakllanadi. Ushbu ob'ektlar o'zlarining tabiiy xususiyatlariga qo'shimcha ravishda, tarixiy, madaniy va afsonaviy ma'nolarni ham o'zida mujassam etishi mumkin: "Kumush Daryo" (Silver River) nomi AQShning janubiy qismidagi bir daryoga berilgan bo'lib, daryo suvlari quyosh nurida porlab turganligi uchun shunday nomlangan. Yashash joylarining nomlari: "Addis Abeba" amxar tilida "yangi gul" degan ma'noni anglatadi, bu nom Efiopiya tarixi va madaniyatiga chuqur bog'langan bo'lib, yangi zamonning boshlanishini, rivojlanishni va yangilanishni ifodalaydi. Siyosiy arboblardan va ularning oila a'zolari nomlari orqali tarixiy voqealar, hamda siyosiy g'oyalar va qadriyatlar haqida ma'lumot beriladi: "Nelson Mandela" yoki "Mahatma Gandhi" nomlari butun bir erkinlik va tenglik uchun kurash ramzi sifatida tilga olinadi. Arxitektura inshootlarining nomi, ramziy ma'nosi va ularning etimologiyasi: "Toj Mahal" nomi uning yaratilish tarixi va sevgi ramzi sifatida ma'lum bo'lib, ushbu nom sayohatchilarga inshootning ramziy ahamiyatini ochib beradi. Refleksivlar o'quvchini til masalalariga jalb qiladi, o'z va boshqa tillarga befarqlikni shakllantiradi.

Turistik diskursda subyektiv modallik turlari va ifodalanish vositalari muhim o'rin tutadi. Nutq subyektini sayohatchiga yangi va keng ma'lumotlarni taqdim etuvchi sifatida faol rol o'ynaydi va ushbu diskursda yuqori darajadagi epistemik modallik orqali bilim, tahlil va baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Epistemik modal turistik diskursda shaxsiy bilimlar va jamoaviy bilimlar kabi ma'nolarni aks ettiradi. Shaxsiy bilimlar: bilim-fikr yo'nalishi, muhim ma'lumot – qo'shimcha ma'lumot, oddiy – g'ayrioddiy, aniq – noaniq bayonet, evidensial ma'nolar kabi yo'nalishlardan iborat. Jamoaviy bilimlar, haqiqat – yolg'on va umumiy ma'lum – noma'lum yo'nalishlardan iborat.

Subyektiv modallik lingvistik vositalar yordamida ifodalanib, kirish so'zlari, yuklamalar, modal so'zlar, gumon olmoshlari va murakkab jumlar orqali subyektning nuqtai nazarini kuchaytiradi. Masalan, *Firstly, "Richmond" is situated in a very peaceful area and there is always clean air available, as the sanatorium is surrounded by a forest park zone; But King Edward the Confessor decided to build a church (minster) and monastery (abbey) here, west of the city walls – hence Westminster; If you wish, for an additional fee, horse riding, hot air*

balloon flights, and quad bike safaris **can be** organized²¹; **Ah!** Standing before the majestic Pyramids of Giza truly takes your breath away, reminding you of the incredible engineering feats of ancient civilizations²²; **Nimadir** Topkapi saroyida meni juda hayratda qoldirdi, ayniqsa uning go'zal va bezatilgan xonalari va osmonli sultonlarining shohona hayoti haqidagi hikoyalar²³; The "Tulskiye Vixodniye" guided tour includes the interesting "Kozlova Zaseka" station complex, a place from which **no one** wants to leave. And you won't want to either²⁴.

Ushbu vositalar axborotni qiziqarli va hissiyotlarga boy tarzda yetkazib, sayohatchilar uchun sayohat qiziqarli va o'ziga xos taassurot qoldirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning "**Turistik diskurs va tarjima faoliyati bilan bog'liq muammolar**" deb nomlangan so'ngi – to'rtinchi bobi to'rt bo'limdan tarkib topgan bo'lib, uning birinchi bo'limi "Xalqaro turistik diskursda tarjimaning kommunikativ-pragmatik paradigmasi"ga bag'ishlangan. Tarjima nazariyasining zamonaviy rivojlanishi tarjimonning lingvistik ekvivalentlar izlashdan ko'ra kengroq va chuqurroq yondashuvni, ya'ni madaniy farqlarni hisobga olgan holda yangi matn yaratishni ta'kidlaydi. Bu, o'z navbatida, tarjimonda ikki madaniyat o'rtasida ko'priq sifatida ishlash, turli madaniy kodlarni anglash va ularga moslash imkoniyatlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Tarjima jarayonida madaniy moslashuv, madaniy xilma-xillikni hisobga olish va madaniy qarama-qarshiliklardan qochish, kommunikativ pragmatikani ta'minlash kabi strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, zamonaviy tarjimon madaniyatlararo muloqotda muhim vositachi sifatida faoliyat yuritadi va uning roli ikki madaniyat o'rtasida to'g'ri va samarali aloqa o'rnatishdan iborat.

Turistik matnlar transferida tarjima qilish imkoniyati va qiyinchiliklari masalasi tarjima ilmida dolzarb mavzulardan biridir. Tarjima jarayonida madaniy realliklar va o'ziga xos terminlar tarjimasi katta ahamiyatga ega. Ba'zi madaniy elementlarni tarjima qilishda to'g'ri ekvivalent topish qiyin bo'lib, izohli tarjimalar yoki asl so'zning o'zini saqlab qolish kabi usullar qo'llaniladi. Har qanday matn tarjima qilinishi mumkin, ammo uning har bir parchasi yoki elementi uchun muvaffaqiyatli tarjimonlik yechimi topilmasligi mumkin. Masalan, *Uzbeks make silk and cotton wall hangings and coverlets such as the beautiful suzani (suzan is Persian for needle). Though enjoyed by nomads and settled families alike, most suzanie were found in established earth-rammed homes. Suzanies are made in variety of sizes used as table covers, cushions, and **ruijo** (a bridal bed spread) and thus were important for the bride's dowry. Generally using floral or celestial motifs (depictions of people and animals are against Muslim beliefs) an average suzani requires about two years to complete. Nice examples of suzani can be found in Tashkent's Museum of Applied Arts*²⁵. Yuqorida keltirilgan misolda madaniy

²¹ URL: www.butatour.com

²² URL: <https://www.tripadvisor.com>

²³ URL: <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2024/01/22/01234567890-2091769>

²⁴ Richmond S. Russia. – Australia.: Lonely planet, 2009. – 796 p.

²⁵ Mayhew B. Central Asia. – Australia.: Lonely planet, 1999. – P. 62.

realiyalar, xususan, “suzani” va “ruijo” kabi soʻzlarni tarjima qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunga sabab, bu tushunchalar boshqa madaniyatlarda aniq ekvivalentlarga ega emas. Shuningdek, matnda keltirilgan atamalar va ularning mazmuni oʻzbek xalqining madaniyati va anʼanalariga xos boʻlib, boshqa tillarga tarjima qilganda oʻzining asl maʼnosini yoʻqotishi mumkin. “Suzani” soʻzi, masalan, oʻzbek va fors tillarida “ignadan yasalgan” degan maʼnoni anglatadi. Bu soʻzning tarjimasi oddiygina “embroidered wall hanging” (kashta tikilgan devor bezagi) boʻlishi mumkin, ammo u oʻziga xos madaniy maʼnoni va tarixiy konnotatsiyalarni yoʻqotadi. Shuning uchun, suzanining anʼanaviy maqsadini, foydalanilish usullarini va uning oʻzbek madaniyatidagi oʻrnini toʻliq yetkazib berish qiyin boʻlishi mumkin.

Shuningdek, “ruijo” atamasi ham faqat oʻzbek madaniyatiga xos boʻlib, “bridal bedspread” (kelinning yotoq toʻshagi) deb tarjima qilinsa, uning asl maʼnosini va bu atama bilan bogʻliq madaniy tushunchalarni toʻliq aks ettira olmaydi. Bu tushunchalarni tushuntirish uchun koʻproq izoh talab etiladi, bu esa tarjimada qoʻshimcha izohlashni talab qiladi va asl matnning qisqaligi va soddaligini buzishi mumkin.

Rasmiy matnlarni tarjima qilishda mazmunni aniq va huquqiy jihatdan toʻgʻri aks ettirish birinchi darajali ahamiyatga ega. Bu turistlarning shaxsiy hujjatlari yoki tashkilotlarning shakllari kabi rasmiy hujjatlarga tegishlidir. Bunday sharoitda tarjima asl nusxaga iloji boricha yaqin boʻlishi, maʼlumotlarni aniq saqlab qolish maqsadida amalga oshirilishi kerak.

Biznesga oid matnlarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlarga matnni talqin qilishda biroz erkinlik berilishi sababli, bu matnlar bilan ishlash alohida yondashuvni talab qiladi. Bunga sabab biznes yozishmalar, turistik agentliklar bilan yozishmalar, maxsus maqolalar, taqdimotlar va koʻrsatmalar kabi matnlarning shakli va mazmuni aniq tarzda saqlanishi kerak.

Madaniy-maʼrifiy turizm bilan bogʻliq matnlar, masalan, yollanmalar va bukletlar maqsadli auditoriyaning ehtiyojlarini hisobga olishi kerak. Bu kabi matnlarni tarjima qilishda tarjimonning asosiy vazifasi madaniy moslik va estetik jozibadorlikni taʼminlashdir.

Mazkur bobning “Turistik onomastika tarjimasi bilan bogʻliq muammolar” deb nomlangan uchinchi boʻlimida turistik onomastika tarjimasi masalasiga eʼtibor qaratilgan. Turistik destinatsiya matnlari odatda joy, hudud yoki yoʻnalishni taʼriflash va uni tanishtirishga xizmat qiladi. Ushbu matnlar oʻzining “lokativ” xususiyatlari bilan ajralib turadi, yaʼni ular joy nomlari va shu hududga xos boʻlgan faktlar, joylar, tadbirlar, shaxslar va boshqa elementlarni aks ettiradi. Bunday nomlar keng qamrovli onomastik paradigmalarga kiradi va har biri maʼlum bir madaniyat yoki mintaqaga xos obyektlarning tasnifi va nomlanishini aks ettiradi. Turistik matnlarda ushbu nomlar oʻziga xos maʼno va madaniy elementlarni yetkazishga xizmat qiladi, shuningdek, jugʻrofik joy nomlari orqali boshqa madaniyatni oʻrganishda muhim rol oʻynaydi. Toponimlar hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini oʻzida mujassam etib, sayyohlar va tadqiqotchilarga oʻsha hududning madaniy merosi va oʻziga xosligini chuqurroq

tushunishga yordam beradi. An'anaviy tarjima nazariyasida atoqli otlarni tarjima qilishda odatda quyidagi usullar taklif qilinadi:

1. Translitteratsiya usuli. Atoqli otni maqsadli til alifbosidan foydalanib, asliyatdagi yozuvga iloji boricha yaqinlashtirishni nazarda tutadi. Bunday fonetik reproduksiya muhim bo'lmagan hollarda qo'llaniladi, lekin asl yozuvni saqlab qolish muhimdir. Masalan, *Дворцовая площадь* — *Dvortsovaya ploshchad*;

2. Transkripsiya usuli. Atoqli otni maqsadli tilda tovushlar mosligidan foydalanib, ya'ni qanday talaffuz qilinishi bilan beriladi. Bu yondashuv ismning fonetik tovushini saqlashga yordam beradi, bu ayniqsa audio va videomateriallar uchun muhim bo'lishi mumkin. Masalan, *Sawmill Beach* – *Сомилл Бич*;

3. Toponimlarni tarjima qilishda transpozitsiya usulidan foydalanish deganda, ularning lingvistik shaklini yoki tuzilishini biroz o'zgartirish orqali yangi tilga moslashtirish tushuniladi. Bu usulni qo'llash orqali toponim asl ma'nosini saqlab qoladi, ammo tarjima qilingan tilda tushunarliroq yoki mosroq shaklga ega bo'ladi. Transpozitsiya usuli, asosan, joy nomlarining tarkibidagi so'zlarning o'rnini almashtirish, sinonimlardan foydalanish yoki grammatik o'zgarishlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Transpozitsiya usuli toponimlarni yangi madaniy kontekstga moslashtirishda samarali bo'lib, ularning asosiy ma'nosini yo'qotmasdan, turli tillarda tabiiy va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, rus tilida "*Флоренция*", Ingliz tilida "*Florence*", italyan tilida "*Firenze*" deb ataladi. Uchalasi ham bir xil shaharga ishora qiladi, lekin o'z tiliga xos shaklda ifodalanadi. *Стамбул* – *Istanbul*;

4. Kalka asliyat tilning toponimi tarkibidagi so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinishi orqali yangi tilga ko'chirilishini anglatadi. Boshqacha aytganda, bu usulda toponim tarkibidagi so'zlar harfiy tarjima qilinadi va asl nomning ma'nosi saqlanib qoladi: "*Greenwood*" → "*Yashil o'rmon*" bu yerda ingliz tilidagi joy nomi kalkalash orqali tarjima qilinib, tarkibiy qismlar (green - yashil, wood - o'rmon) o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pincha bu usullar yetarli emas va tarjimonlar ularni birlashtirishi yoki muqobil yechimlarni izlashlari kerak. Asosiy qiyinchilik mos keladigan usulni tanlashda, turli tovush-harf mosligi tizimlarini hisobga olish, tarjima matnida birxillikni saqlash va maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlarini hisobga olish muhim.

Biz SamDCHI "Tarjimonlik" fakulteti talabalari o'rtasida sotsiolingvistik tahlil o'tkazishga harakat qildik va yozma tarjima topshirig'i doirasida bajarilgan turistik matnning bir parchasini bir necha tarjima variantlarini tahlil qilib chiqdik. Ushbu tahlilda tarjimaning turli xil yechimlari mavjudligini ko'rsatish, atoqli otlarni tarjima qilishda aniq qoidalar va talablardagi noaniqlik, sub'ektivlik tufayli turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatishni maqsad qilib oldik.

Asl nusxa: *Ikki kunlik sayohat davomida sayyohlar Buxoroning tarixiy obidalari, boy an'anaviy merosi hamda bir-biriga qo'shib ketgan ko'chalariga tashrif buyurib, Labi hovuz, Minorai kalon, Buxoro zindoni, Yetti pir ziyoratgohi, Shayboniy hukmdorlar maqbaralari, Sitora-i Mohi Xossa, Ark va shunga o'xshash ko'plab tarixiy qadamjoylar bilan tanishadilar.*

1- Tarjima: *During the two-day trip, tourists will visit the historical monuments of Bukhara, its rich traditional heritage, and its interconnected streets, becoming acquainted with many historical sites such as Lab-i Houz, the Kalyan Minaret, the Bukhara prison, the Seven Saints pilgrimage site, the mausoleums of Shaybanid rulers, Sitorai Mohi Khosa, the Ark, and many others.*

2- Tarjima: *During the two-day trip, travellers visit the historical monuments of Bukhara, its rich traditional heritage, and intertwined streets. They will explore numerous historical sites such as Lyabi Hauz, the Kalyan Minaret, Bukhara prison, the Seven Pirs shrine, the tombs of the Shaybanid rulers, Sitorai Mohi Hossa, the Ark, and many other historical landmarks.*

3- Tarjima: *During the two-day trip, the foreigners visit Bukhara's historical landmarks, rich traditional heritage, and interconnected streets. They will explore sites such as Lyabi Hauz, the Kalon Minaret, the Bukhara dungeon, the Seven Saints shrine, the mausoleums of the Shaybanid rulers, the Sitorai Mohi Khosa palace, the Ark fortress, and many other historical places.*

4- Tarjima: *During the two-day trip, the tourists visit Bukhara's historical monuments, rich traditional heritage, and interconnected streets, including Labi Hovuz, Kalyan Minaret, Bukhara prison, the Shrine of the Seven Pirs, The Shaybanid rulers' mausoleums, Sitora-i Mohi Khossa, the Ark, and many other historical landmarks.*

Matnning asl nusxasida quyidagi toponimlar mavjud:

aholi punktlari (shaharlar): Buxoro;

mikrotoponimlar (markaziy maydon, me'moriy inshoot, tarixiy muzey, ziyoratgoh, maqbara, saroy va qal'a nomlari): Labi hovuz, Minorai kalon, Buxoro zindoni, Yetti pir ziyoratgohi, Shayboniy hukmdorlar maqbaralari, Sitora-i Mohi Xossa, Ark.

Yuqorida taklif qilingan tarjimalar atoqli otlarni tarjima qilishda quyidagi variativlikni namoyish etadi:

transkripsiya: Lab-i Houz, Sitorai Mohi Khosa;

transpozitsiya: Bukhara, The Bukhara prison, The Shaybanid rulers mausoleums;

transpozitsiya + transkripsiya + transliteratsiya: The Seven Pirs shrine;

amaliy transkripsiyada transliteratsiya: Sitora-i Mohi Khossa, The Ark;

tarjima matnida asl shaklni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish: the Ark;

aniqlovchi tarjima bilan kalkalash/transkripsiya: The Sitorai Mohi Khosa palace, The Ark fortress;

kalkalash: The tombs of the Shaybanid rulers;

transkripsiya + to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish: Labi Hovuz.

An'anaviy tarjimalarning ayrim xatoliklari tarjimonning yetarli bilimga ega emasligi yoki noaniqlikdan kelib chiqadi. Ammo, ayrim hollarda parallel variantlar ham mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu matn parchasiga nisbatan tarjima yechimlarini topish mantiqini ko'rib chiqamiz.

Mazkur o'ziga jalb qiladigan matnining tarjimasidagi pragmatik maqsad ingliz va ruszabon turistlarni tadbirlarga jalb qilish va ularning qiziqishini oshirishdan iborat. Hikoya shakli bo'lgan matnlarning eng muhim xususiyati –

o'quvchi uchun osonlik bilan anglash qobiliyati. Reklama elementlariga boy bo'lgan, sayohatchilarni jalb qilish va yangi joylar haqida ma'lumot berishga mo'ljallangan matnlardan iborat bo'lishi kerak.

Tarjima jarayonida matnning mahalliy komponentlarini, ya'ni turistlarga mahalliy va xorijiy madaniy muhitga bimalol kirish va yo'nalishni topishda yordam beradigan jug'rofiy xususiyatlarni hisobga olish zarur. Shunday qilib, tarjimon quyidagi "ishchi yondashuvlar"dan foydalanishi mumkin va kerak: mahalliy joy nomlarini turistlar uchun tushunarli bo'lishi uchun aniqlik bilan tarjima qilish; agar mavjud ekvivalentlar, ya'ni ilgari tarjima qilingan va odatga kirgan nomlar bo'lsa, ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, turistik xaritalarda joy nomlari aniq ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu nomlarni tarjimada ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi; mikrotoponimlarga nisbatan amaliy transkripsiyani transliteratsiya bilan birga qo'llash; yoqimli eshitiladigan va oson esda qoladigan ekvivalentlarni tanlashga harakat qilish.

